# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024
№ 2




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 794 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ........ 10
**Baxtiyor Islamov**

Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ........ 12
**Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov**

Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ........ 18
**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**

Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar ........ 26
**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich**

Yashil budjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari ........ 32
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari ........ 37
**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ........ 41
**Agzamov Shaxboz Akmalovich**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ........ 46
**A. X. Salamov**

Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ........ 50
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi ........ 57
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ........ 65
**Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich**

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ........ 69
**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari ........ 74
**Shagazatov Oybek bahodirovich**

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari ........ 78
**Davlatov Sanjar Abdimannonovich**

Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ........ 82
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari ........ 86
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ........ 91
**Yoriyeva Farangiz Murodillayevna**

Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi ........ 96
**Nazarova Umida Avazovna**

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari ........ 100
**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ........ 105
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich**

Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati........110
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili........115
**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish........121
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari........125
**Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**

Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан........131
**Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна**

Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari........137
**Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich**

Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish........143
**Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva**

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili........150
**Sultonboeva Munira bahodirovna**

Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar........156
**Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o‘g‘li**

Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта........161
**С. С. Алиева, А. Назаров**

Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish........169
**Sheraliyeva Saida Azatovna**

Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari........172
**Ergashev Sarvar Xudoynazarovich**

Инклюзивное образование и его особенности........177
**Зайнутдинова Умида Джалоловна**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo‘llari........181
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo‘llari........186
**Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li**

Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari........190
**Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li**

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi........195
**G. Adilova**

Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o‘yinlar nazariyasi usuli bilan baholash........199
**Mardiyev Nurali**

Yengil sanoatda “lean production” konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari........205
**Yaxyayeva Inobat Karimovna**

Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’siri tahlili........209
**Borotov Sharofiddin Jumaqul o‘g‘li**

Ko‘chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari........215
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari........223
**Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna**

O‘zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar........228
**Eshimov Alisher Dusmurodovich**

Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) ........ 236
**Norqobilov Akobir Iso o'g'li**

Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari ........ 242
**Rabbimov Elbek Abdulloyevich**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari ........ 247
**Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li**

Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 252
**Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li**

Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari ........ 258
**Kenjayev Soxib Sayfiyevich**

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish ........ 262
**Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli ........ 268
**Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li**

Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari ........ 276
**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari ........ 279
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish ........ 283
**Normo'minov Temurbek Sheraliyevich**

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari ........ 286
**To'ychiyev Otabek Shamshiyevich**

Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari ........ 290
**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati ........ 295
**Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li**

Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish ........ 299
**Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari ........ 304
**Abdullayev Boburjon Akbaralievich**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni ........ 308
**Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li**

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ........ 312
**Mirzayeva Nargiza Batirovna**

Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv ........ 316
**O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov**

Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation ........ 321
**Mukhlisa Ikramova**

Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ........ 327
**Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev**

Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba ........ 331
**Kadirova Sharofat Amonovna**

Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирйўлйўловчи" ........ 334
**Н. Э. Кахарова**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ....339
**Sharipov Bobur Anvar o'g'li**

"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish ....344
**Musyeva Shoira Azimovna**

Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari ....350
**M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova**

Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans....355
**Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova**

Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati ....359
**Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich**

Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari ....364
**Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari ....371
**Tursunova Shaxnoza Farxod qizi**

Процессы цифровизации АО "Hududgazta'minot" ....375
**Хусанов Кахрамон Нишонович**

O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari....380
**Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi ....383
**Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich**

Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash....388
**Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li**

O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari....396
**Sh. Madraimov**

Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida....399
**Xasanova Lola Mamasharifovna**

Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari ....402
**B. B. Berkinov**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari ....411
**G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li**

Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida) ....415
**Karimov Bekzodjon Ilxomovich**

Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari ....422
**Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

Финансы или корпоративные финансы....428
**Уринов Бобур Насиллоевич**

In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features ....434
**Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi**

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari ....439
**Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li**

Сокращение уровня бедности в Узбекистане ....445
**Амирджанова Ситора Суннат кизи**

Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta’sirini baholash ....450
**S. B. Inoyatov**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ....455
**Maxmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li**

Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari ....462
**Ollokulova Feruza Mansurovna**

Kambag‘allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta’minlashning muhim omili ....465
**Usmanov Baxodir Baxtiyorovich**

Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati ....471
**Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna**

Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlash istiqbollari ....475
**M. Yuldosheva**

Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari ....482
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O‘zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili ....489
**Mirzayev Mirza Abdullayevich**

Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi ....494
**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

Integrasiya sharoitida to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi ....501
**Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna**

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish ....505
**Karamatova Noiba Husnitdinovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari ....512
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ ....519
**Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович**

O‘zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo‘llari ....524
**Sultanov Baxram Begdullayevich**

Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях ....528
**Самигова Гуландом Абдужаббаровна**

Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri ....536
**Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi**

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin ....541
**Muminov Akmal Tulkunovich**

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta’lim tizimining ta’siri ....545
**Nasimov Adiz Azamat o‘g‘li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich**

Respublikada fermer xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ....550
**Shukurov Ilxom Safarboyevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Turli mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish yo‘llari ....557
**Umarova Moxigul Maxmayunus qizi**

Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi ....562
**Yuldashev G‘iyos Turabekovich**

Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari ....566
**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ....572
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Секреты интересного урока в начальной школе ....579
**Гараева Олеся Владимировна**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o‘rni ....582
**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**

Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi ....586
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich**

O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida ....593
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich**

Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control ....599
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich**

Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari ....604
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich**

Оценка экономической эффективности использования фотоэлектрической тепловой установки ....608
**Жураев Ислом Рахматович, Юлдошев Исроил Абриевич, Жураева Зухра Исламовна**

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba ....614
**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich**

Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi ....621
**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li**

Oliy ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari ....625
**Abdukadirova Kamola Azimovna**

Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ....629
**Isomiddinov Inomjon Qurvonali o‘g‘li**

Ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha infrastruktura holati ....636
**Dehqonov Burxon Rustamovich**

Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari ....642
**Kamilov Abror Anvarovich**

O‘zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirish ....647
**Dodiyev Fozil O‘tkurovich**

O‘zbekistonda talant menejmentni tatbiq etish istiqbollari ....653
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari ....658
**Muxammadiyev Ramz Zoirjon o□g□li**

Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda resurs xarajatlarini optimallashtirish: tahlil va boshqarish ....663
**Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li, Karabayev Rustam Zafarovich**

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug‘urta institutlarining tutgan o‘rni ....673
**K. A. Sharipov, D. Jo‘rayev**

Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion talqini ....678
**Aripov Oybek Abdullayevich**

Enhance Export Potential of Private Entrepreneurship and Small Venture ........ 683
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**

Mintaqa barqaror rivojlanishini cheklovchi ekologik omillar tahlili ........ 690
**Adilova Marg'uba Tursunaliyevna**

Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies ........ 698
**Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi**

A study of green marketing practices in the retail industry – Advantages and disadvantages ........ 705
**Davronova Zilola Gulomovna**

Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish ........ 709
**Farmanova O'g'iloy Aliqul qizi**

Davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari ........ 715
**Maxmudov Azamat Normuradovich**

Xorijiy banklarning moliya injiniringi mahsulotlari va rivojlanish istiqbollari ........ 721
**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich**

O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar ........ 727
**Fayziyev Oybek Raximovich, Xalikov Saydilla Abdraxmanovich**

Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modelini yaratish ........ 734
**Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Axmedova Rayxona Jasurbek qizi**

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari ........ 741
**Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li**

Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy texnika va texnologiyalarning xususiyatlari ........ 747
**Xusanov Ulugbek Nishanovich**

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar ........ 752
**Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi**

Mulkchilikning iqtisodiyotdagi ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish (O'zbekiston va Shvetsiya misolida) ........ 757
**Odil Norboyev**

Ipoteka krediti riskining ayrim nazariy jihatlari ........ 761
**Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi**

Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning ishtiroki ........ 764
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, Bobobekova Nargiza Baxtiyorovna**

Tijorat banklari fond bozoridagi aksiyalar narxini o'zgarishini ebo moduli orqali
aniqlashning ekonometrik tahlili ........ 769
**Yuldoshova Manzura Ollashkurovna**

Organizational mechanism of sustainable development of the tourism industry,
role and application of technologies ........ 780
**Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich**

Banklarda risklarni diversifkatsiyalashning mohiyati va ahamiyati ........ 787
**Baxriddinov Sharofiddin**

# TIJORAT BANKLARI FOND BOZORIDAGI AKSIYALAR NARXINI O‘ZGARISHINI EBO MODULI ORQALI ANIQLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI



**Yuldoshova Manzura Ollashkurovna**
Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarini aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.EBO moduli orqali tijorat banklari aksiyalarini korrelyatsion-regression tahlili o‘tkazilgan. Tijorat banklarining EBO ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillarning umumiy xususiyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: EBO moduli, tijorat banklari, qimmatli qog‘oz, aksiya, fundamental tahlil, texnik tahlil, korrelyatsiya-regressiya tahlili, ROE, ROA.

Abstract: In this article, indicators affecting the price of shares of commercial banks are analyzed. Correlation-regression analysis of shares of commercial banks was conducted through the EBO module. The general characteristics of the factors affecting the EBO indicators of commercial banks are studied.

Key words: EBO module, commercial banks, stock, stock, fundamental analysis, technical analysis, correlation-regression analysis, ROE, ROA.

Аннотация: В данной статье анализируются показатели, влияющие на цену акций коммерческих банков.Корреляционно-регрессионный анализ акций коммерческих банков проводился посредством модуля EBO. Изучены общие характеристики факторов, влияющих на показатели EBO коммерческих банков.

Ключевые слова: Модуль EBO, коммерческие банки, акции, акции, фундаментальный анализ, технический анализ, корреляционно-регрессионный анализ, ROE, ROA.

## KIRISH

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarish ustuvor maqsad belgilangan”[1]. Davlatimiz rahbari tomonidan yana bir muhim vazifa – samarali fond bozorini shakllantirish masalasi ko‘tarildi. “Aynan fond bozorini kuchaytirish istiqbolda tijorat banklari faoliyati rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit va fond bozorlari o‘rtasida keskin raqobat yuzaga kelishi har ikkala sohaning raqobatda ustunlikka intilishi orqali rivojlanishni ta’minlaydi. Bundan esa milliy ishlab chiqaruvchi, kapital zarur bo‘lgan tomon arzon kapital jalb qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bois, iqtisodiyotni moliyalashtirish nuqtayi nazaridan moliya bozorining birja modelini tanlagan mamlakatlarda bank tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Yoki aksincha, iqtisodiyotni bank vositasida moliyalashtiruvchi mamlakatlarda ham fond birjalari to‘liq raqobatchi sifatida rivojlanganini ko‘rish mumkin. Yurtimizda ayni vaqtda iqtisodiyotda davlat ishtiroki yuqoriligi emitentlarning fond bozoridagi faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”[2].

Bundan tashqari banklarni fond birjasida ishtirok etishini cheklovchi bir nechta me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular bevosita banklarning fond bozorida erkin ishtirok etishini cheklaydi. Jumladan, “Banklar Markaziy bank tomonidan beriladigan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida qonunchilik hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar bog‘liq bilan operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Bunda, qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalariga egalik qilishi belgilangan”[3].

1 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, -T.:2022-y. – 152 b.
2 https://yuz.uz/news/bank-tizimi-va-fond-bozori-investitsion-jozibadorlik-nima-beradi
3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 5-maydagi 10/5-son qaroriga 1-ilova (https://lex.uz/docs/6487097)

Tijorat banklarini fond birjasida emitent sifatida ishtirok etishi orqali banklar bozorida raqobatni yanada kuchaytirish mumkin. Aynan banklar bozoridagi eng sust raqobat bu banklarning fond bozoridagi ishtiroki bilan baholanadi. Shuning uchun fond bozorida ishtirok etuvchi banklarning raqobat bozoridagi ustunligini ta'minlashda ularning aksiyalari narxini barqaror bo'lishi muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarini fond bozoridagi aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirishda aynan qaysi ko'rsatkichlarni ta'siri eng yuqori bo'lishini aniqlash, bu banklarning fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda tijorat banklari aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni mikro va makro jihatdan o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, "bank sektorining moliyaviy holati bank muassasalari faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga bog'liq. Korrelyatsiya-regressiya tahlili bu omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Korrelyatsiya-regressiya tahlili bir necha bosqichlardan iborat:

1) obyektni tanlash, muammoni shakllantirish va o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni tanlash.
2) statistik materiallarni to'plash va uni tekshirish.
3) xususiyatlar orasidagi bog'liqlikni o'rganish.
4) regressiya modellarini qurish.
5) o'rganish natijalarini baholash va regressiya tenglamasining parametrlarini mantiqiy tahlil qilish"[4].

Ushbu tadqiqotchi fikricha tijorat banklari aksiyalari narx'ini tebranishini baholashda korrelyatsiya-regressiya tahlili orqaliamalga oshirish muhim deb hisoblaydi. Bizga ma'lumki aksiyalarni fond birjasidagi harakatini o'rganiuvchi usullarga fundamental, texnik va bozor kayfiyati muhim rol o'ynaydi. Ko'plab tadqiqotlarda aynan shu masalalarga alohida e'tibor qaratishgan.

Texnik fundamental tahlildan farqli o'laroq, u ichki omillarga qo'shimcha ravishda tashqi omillar ham zaxiralarga ta'sir qilishiga asoslanadi. Shuningdek, ushbu tahlil, qoida tariqasida, qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan texnik tahlildan farqli o'laroq, kelajakka qaratilgan. Fundamental tahlilda turli modellardan foydalanish mumkin: ehtimollik, ekonometrik, simulyatsiya va neyron tarmoqlar. Qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish yoki prognoz qilishning u yoki bu usulini tanlashda bozorlararo munosabatlarni, ya'ni turli bozorlar (tovar, moliyaviy va boshqalar) o'rtasidagi munosabatlarni ham hisobga olish kerak. Buning sababi shundaki, barcha faoliyat ko'rsatayotgan bozorlar bir bozordan ikkinchisiga o'tadigan investorlar kapitali uchun bir-biri bilan raqobatlashadi. "Kapitalning bu harakati kompaniya qimmatli qog'ozlari bozoridagi kotirovkalarning o'sish va pasayish tendensiyalarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, kapital qo'yilmalarning samaradorligi va kapital harakati firmaning adolatli va bozor qiymati o'rtasidagi farqni baholashga ta'sir qiladi"[5].

Ayrim olimlar fikricha "Tijorat bankining bozor qiymatini baholashning har bir usuli ham afzalliklarga, ham ma'lum kamchiliklarga ega. Taqqoslash asosida tijorat bankining qimmatli qog'ozlar bozorida eng katta investitsiya jozibadorligini ta'minlaydigan aksiyalarini baholash usullarini aniqlash kerak"[6] deb ta'kidlaydilar.

"... Aksiyalarning balans qiymati kompaniyaning o'z kapitali (ustav kapitali+zaxiralar+sof foyda) qiymatini muomaladagi oddiy aksiyalar soniga bo'lish yo'li bilan olinadi..."[7]. Bunda tadqiqotchi fikricha keng tahlil o'tkazish shart emas, balki oddiy usulda aniqlash mumkin deb izohlaydi.

Bizga ma'lumki korrelyatsion tahlilning asosiy vazifalari bog'lanish kuchini baholash va korrelyatsiya mavjudligi va mustahkamligi haqidagi statistik farazlarni tekshirishdan iborat. Iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning hammasi ham tasodifiy o'zgaruvchilar emas. Shuning uchun iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda odatda tasodifiy va tasodifiy bo'lmagan o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar hisobga olinadi. Bunday munosabatlar regressiya, ularni o'rganuvchi matematik statistika usuli esa regressiya tahlili deb ataladi. "Omilli tahlil usullari mavjud gipotezani tasdiqlashi yoki ko'p sonli kuzatishlar asosida yangi gipotezani shakllantirishi mumkin. Omilli tahlilini qo'llash sohasidan qat'i nazar, statistik usul sifatida ko'rib chiqish zarur"[8].

"Bank aksiyalarining bozor qiymatini baholash tashkilotning investitsiyalar nuqtayi nazaridan jozibadorligini aniqlash va aksiyaning adolatli narxini hisoblash uchun ko'paytmalarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan fundamental tahlildan boshlanishi kerak"[9].

4 https://bstudy. net /762654/ ekonomika/ korrelyatsionno _regressionnyy_ metod_analiza_ bankovskoy _deyatelnosti? ysclid= lhitjz69yr9593081
5 Аибиэкэ, Адилицзян. Расчеты взаимосвязи рынка акций и экономического развития на основе факторного анализа / Адилицзян Аибиэкэ. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 24 (210). – С. 112-116.
6 https://sovman.ru/article/7101/?ysclid=lhoauvhfo6325967224
7 Kilyachkov A.A., Chaldayeva L.A. Securities Market and exchange business/ Kilyachkov A. A., L. A. Chaldayeva. M.: Yurist, 2011. 704 p.
8 https://banki.bobrodobro.ru/433
9 https://nrm.uz/contentf?doc=697787_ &products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana&ysclid= lhonjn0vw 0715732386

Olib borilgan tadqiqotlarda asaosiy e'tibor ko'proq fundamental tahlil asosida aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarga e'tibor qaratilgan. Bizga ma'lumki fond bozorida aksiyalar narxini keskin tebranishi oqibatida turli holatlar yuzaga keladi. Ushbu holatlarni to'g'ri baholash orqali aksiyalar narxini keyingi holatiga baho berish mumkin bo'ladi.

## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu maqolada tijorat banklarining aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sir darajasini korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirishda tanlov funksiyasi sifatida EBO modulidan foydalanish orqali ularga ta'sir qiluvchi omillarga baho beriladi. Metodologik jihatdan ushbu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqib tijorat bankining aksiyasini narxini barqarorligiga baho beriladi.

Tijorat banklarining aksiyalar qiymatini aniqlash bo'yicha baholash faoliyatida ekspertlar baholash metodologiyasini tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu nafaqat mablag'larni jalb qilish va qo'shimcha xarajatlarning bir qismini bank bo'linmalari xarajatlariga kiritish uchun xarajatlar darajasini aniqlashning qiyinligi bilan, balki tijorat bankining bozor kapitallashuvi ko'rsatkichi bo'lganligi bilan ham izohlanadi., Bank aksiyalarining umumiy qiymati uning moliyaviy natijalariga qarab ko'tarilishi yoki kamayishi sababli, kapitallashuv uning ma'lum bir davrdagi faoliyati samaradorligini baholashga yordam beradi. Bozor kapitallashuvi barcha muomaladagi aksiyalarning bozor bahosi va ushbu aksiyalar sonining mahsuloti sifatida hisoblanadi. Kapitallashtirishning muqobil hajm mezonlariga nisbatan yana bir afzalligi bor: u bozordagi banklarning haqiqiy vaznini bir xil aksiyalarning potensial xaridoriga beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan modul asosida amalga oshiriladigan mexanizmni har bir bosqichiga to'xtalib o'tamiz. Buning uchun ushbu EBO modulini hisoblash metodikasi bilan tanishib chiqamiz. Uning hisoblash formulasi quyidagicha:

$$V = SK_t + \sum_{t=1}^{\infty} \frac{E[\Delta x_t]}{(1+i)^t} \quad (1)$$

Bu yerda, tijorat bankining t vaqtdagi sof kapitali, matematik kutilma qiymati, diskont stavkasi.

$$\Delta x_t = x_t - i * SK_{t-1} \quad (2)$$

Bu yerda, tijorat bankining t vaqtdagi daromadi.

Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalangan holda tijorat bankini yillar kesimida EBO ko'rsatkichini hisoblab topamiz.

1-jadval: "O'zsanoatqurilishbankining" ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)[10]

| Yillar | Sof foyda | O'z kapitali |
|---|---|---|
| 2005 | 2286231 | 23843703 |
| 2006 | 8053602 | 30526495 |
| 2007 | 11714821 | 47882616 |
| 2008 | 15106843 | 112709618 |
| 2009 | 5978624 | 123222616 |
| 2010 | 12692881 | 136972616 |
| 2011 | 16154254 | 161227616 |
| 2012 | 25529707 | 259550820 |
| 2013 | 39861753 | 326305625 |
| 2014 | 34201296 | 622516198 |
| 2015 | 75884649 | 706982981 |
| 2016 | 86554679 | 760300000 |
| 2017 | 89933654 | 146000000 |
| 2018 | 219396000 | 1884900000 |
| 2019 | 604500000 | 464000000 |
| 2020 | 806900000 | 464000000 |
| 2021 | 998200000 | 464000000 |
| 2022 | 588900000 | 464000000 |

10 Tijorat banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Diskont stavkasi 15 % ga teng.

$$\Delta x_{2005} = x_{2005} - i * SK_{t-1} = 2286231 - 0.15 * 30526495 = -1290324{,}45$$

$$V_{2005} = SK_t + \sum_{t=1}^{\infty} \frac{E[\Delta x_t]}{(1+i)^t} = 23843703 - \frac{1290324}{(1+0{,}15)} = 2272682$$

Xuddi shunday qolgan yillar uchun EBO ko‘rsatkichlarini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi diagrammaga ega bo‘lamiz.




1-rasm: O‘zsanoatqurilishbankining EBO modeli orqali ko‘rsatkichlar tahlili[11]

EBO ko‘rsatkichlari asosida olingan tahlillariga ko‘ra quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, EBO ko‘rsatkichlari bankning o‘z kapitali bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanishga ega bo‘lib, 2017-yilda eng katta qiymatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib qiymati keskin o‘zgarishga sabab bo‘lgan. Ikkinchidan, EBO ko‘rsatkichlarini sof foydadan ayirmasi tekshirilganda bankning ko‘rsatkichlari 2019-2022-yillar oralig‘ida salbiy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bizga ma’lumki ushbu ko‘rsatkich musbat qiymatlarida bank aksiyalari narxi barqaror hisoblanadi.




2-rasm: O‘zsanoatqurilishbankining EBO modeli ko‘rsatkichlaridan sof foyda ko‘rsatkichlari ayirmasi tahlili[12]

11 Muallif tomonidan tayyorlangan.
12 Muallif tomonidan tayyorlangan.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bankning keyingi uch yil ichidagi ko‘rsatkichini pasayishi uning aksiyalar narxini nobarqaror ekanligidan dalolat beradi. Uchinchidan, bank ustav kapitalini keyingi uch yil ichida deyarli o‘zgarmaganligi ham ushbu ko‘rsatkichning pasayishiga sabab bo‘lgan. To‘rtinchidan, bu esa bankning banklararo raqobat bozorida ko‘rsatkichlarini pasayishiga olib kelgan.

Olingan tahlil asosida tijorat bankining aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi omillarini ta’sirini o‘rganishda o‘zgarmas funksiya sifatida EBO ko‘rsatkichlarini olish, bankning aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi omillarini aniq ifodalash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2022 yil 9 dekabrda 3400-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga asosan bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda - bazaviy ko‘rsatkich to‘g‘risidagi ma’lumotning maqsadi hisobot davri mobaynida bosh tashkilotning har bir oddiy aksiyasiga to‘g‘ri keladigan tashkilotning faoliyati natijasi ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichni ta’minlashdan iborat etib belgilangan.

Tashkilot imtiyozli aksiyalarni diskont bilan sotganligi evaziga past qiymatli dastlabki dividendni yoki investorlar imtiyozli aksiyalarni premium bilan xarid qilganligi evaziga keyingi davrlarda bozor darajasiga nisbatan yuqori qiymatli dividendni ta’minlaydigan imtiyozli aksiyalar ba’zida dividend normasi o‘sib boradigan imtiyozli aksiyalar deb yuritiladi. Dividend normasi o‘sib boradigan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha har qanday dastlabki chiqarilgan diskont yoki mukofot summasining amortizatsiyasi effektiv foiz stavkasi usuli orqali taqsimlanmagan foydada aks ettiriladi va bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foydani hisoblash maqsadida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend sifatida hisobga olinadi.

Davr mobaynida muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdoridan foydalanish har qanday paytda muomalada bo‘lgan aksiyalarning miqdori ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi natijasida davr mobaynida aksiyadorlar kapitali summasining tebranishi mumkinligini aks ettiradi. Davr mobaynida muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdori - davr mobaynida qayta xarid qilingan yoki chiqarilgan oddiy aksiyalarning vaqt omili bo‘yicha tortilgan koeffitsiyentga ko‘paytirilgan miqdoriga tuzatilgan davr boshida muomaladagi oddiy aksiyalarning miqdori hisoblanadi. Vaqt omili bo‘yicha tortilgan koeffitsiyent aksiyalarning muomalada bo‘lgan kunlar sonining hisobot davridagi jami kunlar sonidagi ulushidir; ko‘p holatlarda ushbu o‘rtacha tortilgan qiymatning asoslangan tarzda yaxlitlangan miqdoridan foydalanish mumkin.

Davr mobaynida va taqdim etilgan barcha davrlardagi muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdori, potensial oddiy aksiyalarni konvertatsiya qilishdan tashqari, resurslardagi tegishli o‘zgarishsiz muomaladagi oddiy aksiyalar miqdorini o‘zgartirgan hodisalarni hisobga olgan holda tuzatilgan bo‘lishi lozim.

Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda - ko‘rsatkichini hisoblash maqsadida, chiqarilishi nazarda tutilgan oddiy aksiyalarning o‘rtacha bozor narxi davr mobaynidagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha bozor narxi asosida hisoblanadi. Nazariy jihatdan, tashkilotning oddiy aksiyalari bo‘yicha har bir bozor operatsiyasi o‘rtacha bozor narxini aniqlashda foydalanilishi mumkin. Lekin, amaliy jihatdan, odatda haftalik yoki oylik narxlarning oddiy o‘rtachasi odatda yetarli bo‘ladi.

Umuman olganda, “o‘rtacha bozor narxini aniqlashda bozorning yopilish narxlari yetarli bo‘ladi. Lekin, narxlarning tebranishi keng bo‘lganida, eng yuqori va eng past narxlarning o‘rtachasi odatda munosibroq narxni hosil qiladi. O‘rtacha bozor narxini hisoblashda foydalanilgan usul, agar shartlar o‘zgarganligi sababli munosib bo‘lmay qolmasa, izchil ravishda foydalaniladi. Masalan, nisbiy barqaror narxlarning bir necha yillari uchun o‘rtacha bozor narxini hisoblashda bozorning yopilish narxlaridan foydalanadigan tashkilot, agar narxlar keng tebranishni boshlaganda va bozorning yopilish narxlari bundan buyon munosib o‘rtacha narxni hosil qilmasa, eng yuqori va eng past narxlarning o‘rtachasidan foydalanishi mumkin”[13].

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik jamiyati ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda ularning aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillarni korrelyatsion-regression tahlilini ko‘rib chiqamiz. Bunda aksiyadorlik jamiyatining 2005-2022-yillardagi ma’lumotlaridan foydalanamiz. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni tanlab olamiz: u – EBO qiymati: $x_1$ – davr uchun foyda, $x_2$ – bankning sof foy CIR (umumiy rentabellik), $x_3$ – Sof foiz marjasi, $x_4$ – ROA aktivlar rentabelligi (soliq to‘languncha foydani/jami aktivlarga nisbati*100), $x_5$ – markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, $x_6$ – inflyatsiya darajasi.

13 https://nrm.uz/ contentf?doc=697787_ &products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana&ysclid= lhonjn0vw 0715732386

2-jadval: "O'zsanoatqurilishbank" ko'rsatkichlari[14]

| Yillar | Ko'rsatkichlar | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | EVO qiymati | Davr uchun foyda | CIR | Sof foiz marjasi | ROE | ROA | MB qayta moliyalashtirish stavkasi | Inflyatsiya darajasi |
| 2005 | 22,7 | 2,2 | 20,1 | 0,11 | 9,59 | 0,7 | 16 | 5,2 |
| 2006 | 33,1 | 8,1 | 64,8 | 0,13 | 26,38 | 1,26 | 16 | 4,7 |
| 2007 | 50,8 | 11,7 | 26,6 | 3,73 | 24,47 | 1,51 | 14 | 5,1 |
| 2008 | 111,6 | 15,1 | 22,2 | 2,82 | 13,4 | 1,24 | 14 | 4,9 |
| 2009 | 117 | 5,9 | 8,9 | 2,5 | 4,85 | 0,45 | 14 | 4,7 |
| 2010 | 133,6 | 12,6 | 42 | 2,26 | 9,27 | 0,8 | 14 | 5 |
| 2011 | 158,2 | 16,1 | 42,8 | 2,45 | 10,02 | 0,63 | 12 | 4,7 |
| 2012 | 255,2 | 25,5 | 20,9 | 2,19 | 9,84 | 0,71 | 12 | 4,9 |
| 2013 | 323,7 | 39,8 | 26,6 | 2,5 | 12,22 | 0,75 | 12 | 5,2 |
| 2014 | 607,8 | 34,2 | 18,9 | 2,3 | 5,49 | 0,53 | 10 | 5 |
| 2015 | 700,4 | 75,8 | 34,8 | 2,14 | 10,73 | 1 | 9 | 4,1 |
| 2016 | 755,2 | 86,7 | 35 | 2,31 | 11,4 | 0,84 | 9 | 8,9 |
| 2017 | 1570,6 | 899,3 | 26,6 | 1,46 | 61,6 | 3,7 | 9 | 9,6 |
| 2018 | 1875,9 | 219,4 | 44,1 | 2,16 | 11,64 | 0,71 | 14 | 20,1 |
| 2019 | 529,7 | 219,4 | 65,1 | 3,23 | 7,7 | 1,98 | 16 | 13 |
| 2020 | 542,7 | 600,5 | 44,6 | 3,99 | 12,69 | 2,15 | 15 | 14,3 |
| 2021 | 550,3 | 798,2 | 36,8 | 4,7 | 12,1 | 1,92 | 14 | 11,1 |
| 2022 | 505,9 | 998,2 | 29,6 | 4,6 | 13,8 | 0,62 | 14 | 9,8 |

Bu yerda, CIR (umumiy rentabellik) Foyda/umumiy xarajatlarga*100, Sof foiz marjasi (foizli daromadlar-foizli xarajatlar)/jami aktivlar*100, ROE (sof foydani – o'z kapitaliga nisbati)*100, ROA aktivlar rentabelligi (soliq to'languncha foydani/jami aktivlarga nisbati*100) asosida hisoblab topilgan.

Olingan ma'lumotlarni ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlil orqali ularning bog'liqlik jadvalini tuzib olamiz. Bu quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

3-jadval: "O'zsanoatqurilishbank" aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillarning korrelsion-regression tahlili[15]

| Регрессионная статистика | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Множественный R | 0,973661683 | | | | |
| R-квадрат | 0,948017073 | | | | |
| Нормированный R-квадрат | 0,911629024 | | | | |
| Стандартная ошибка | 152,0479102 | | | | |
| Наблюдения | 18 | | | | |
| | | | | | |
| Дисперсионный анализ | | | | | |
| | df | SS | MS | F | Значимость F |
| Регрессия | 7 | 4216152,774 | 602307,5392 | 26,05297893 | 1,19593E-05 |
| Остаток | 10 | 231185,6701 | 23118,56701 | | |
| Итого | 17 | 4447338,444 | | | |

14 Ma'lumotlar muallif tomonidan internet saytlari asosida tayyorlangan (https://akhancem.uz/lat/info4.html, https://cbu.uz/oz/).
15 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.

| | Коэффициенты | Стандартная ошибка | t-статистика | P-Значение | Нижние 95% |
|---|---|---|---|---|---|
| Y-пересечение | 1256,707057 | 271,5132518 | 4,628529358 | 0,00093828 | 651,7378317 |
| Переменная X 1 | 0,024719876 | 0,191076025 | 0,12937194 | 0,899628513 | -0,401024038 |
| Переменная X 2 | -2,842447326 | 3,020988939 | -0,940899614 | 0,368929138 | -9,573630152 |
| Переменная X 3 | -80,83714891 | 45,35377566 | -1,782368672 | 0,105022063 | -181,8916585 |
| Переменная X 4 | 10,97918512 | 6,467493911 | 1,697594969 | 0,120433421 | -3,431289335 |
| Переменная X 5 | -88,21718894 | 92,63282841 | -0,952331808 | 0,36337977 | -294,6159929 |
| Переменная X 6 | -106,3833941 | 17,36886048 | -6,124949543 | 0,00011195 | -145,0836269 |
| Переменная X 7 | 109,7614941 | 11,30509551 | 9,709028459 | 2,08222E-06 | 84,57217153 |

Tahlil to'plami yordamida amalga oshirilgan regressiya va korrelyatsion tahlil natijalarini 3-jadvalda ko'rish mumkin. Regressiya tenglamasi "koeffitsiyentlar" ustunida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq tuziladi. "u-kesishish" chizig'i "1260.70 erkin atamasining qiymatini va tegishli statistikani, "o'zgaruvchan $x_1$– "o'zgaruvchan $x_7$" satrlarini – regressiya koeffitsiyentlarining qiymatlarini va tegishli statistikani ko'rsatadi. Regressiya tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$Y=1256,70+0,024719876x1 -2,842447326x2-80,83714891x3+10,97918512x4-88,21718894x5-106,3833941x6+109,7614941\ x7 \quad (3)$$

Ushbu regressiya uchun ko'p korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,973 (juda yuqori), bu tanlangan omillar va bankning EBO qiymati o'zgarishi o'rtasidagi munosabatlarning yuqori yaqinligini ko'rsatadi.

u funksiyasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni tanlash kerak, chunki ko'p sonli omillarni o'z ichiga olgan model beqaror: u omillarning tegishli o'zgarishlari bilan u dagi o'zgarishlarni obyektiv aks ettirmaydi. Tanlov maxsus statistik xususiyatlarning qiymatlarini tahlil qilishga asoslangan. Asosiy omillarni tanlash tartibi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Multikollinearlik omillarini tahlil qilish va uni istisno qilish. Multikollinearlikni aniqlash y va x omillari o'rtasidagi juftlik korrelyatsiyasi koeffitsiyentlarining qiymatlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Agar g > 0,7 bo'lsa, unda u va x omillari multikollineardir.

Bir biriga bog'liq bo'lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasini hisoblash kerak.

4-jadval: Bir biriga bog'liq bo'lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasi[16]

| | Столбец 1 | Столбец 2 | Столбец 3 | Столбец 4 | Столбец 5 | Столбец 6 | Столбец 7 | Столбец 8 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Столбец 1 | 1 | | | | | | | |
| Столбец 2 | 0,462203728 | 1 | | | | | | |
| Столбец 3 | 0,111809071 | 0,068694638 | 1 | | | | | |
| Столбец 4 | 0,022237471 | 0,508543931 | -0,027261924 | 1 | | | | |
| Столбец 5 | 0,402406607 | 0,453924006 | 0,039881383 | -0,221273999 | 1 | | | |
| Столбец 6 | 0,391548556 | 0,586085268 | 0,247134792 | 0,1108138 | 0,784810818 | 1 | | |
| Столбец 7 | -0,40611184 | -0,034311371 | 0,354024259 | 0,068303662 | -0,261718973 | -0,07417 | 1 | |
| Столбец 8 | 0,728889701 | 0,51543314 | 0,40811805 | 0,33520572 | 0,060708134 | 0,326163 | 0,208387 | 1 |

Ko'rib chiqilayotgan misolda multikollinearlik mavjud bo'lib (ma'lumotlar bir biriga ta'sirchan): x1 va x8 omillar o'rtasida (ular orasida bog'langan korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi 0.72) ga teng; x5 va x6 omillar o'rtasida (0.78); x2 va x6 omillar o'rtasida ( 0.58); x1 va xb omillar o'rtasida (0.79); x2 va x4 omillar o'rtasida (0.50) ga teng bo'lgan.

Multikollinearlikni bartaraf etish uchun omillardan biri modeldan chiqarib tashlanadi. Quyidagi statistik xususiyatlarni baholash paytida chiqarib tashlanadigan omillar aniqlanadi: omil va funksiya o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti yuqori bo'lgan bog'lanishlar qoldiriladi.

Omillar (x) ning qaram o'zgaruvchi (u) bilan yaqinligini tahlil qilish uchun omil va funksiya (r) o'rtasidagi juftlik korrelyatsiyasining qiymatlaridan foydalaniladi. r ning qiymati korrelyatsiya matritsasida ham ko'rsatilgan.

16 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.

rxy= 0, ya'ni y bilan bog'liq bo'lmagan omillar birinchi navbatda chiqarib tashlanishi kerak. Eng past qiymatga ega bo'lgan omillar modeldan chiqarib tashlanishi mumkin. Bizning misolimizda x omil multikol-chiziqli to'rt omil bilan x2, x3, x5, xb teskari bog'liqni yuzaga keltirmoqda. Biroq, g = 0,728 bilan ulanishning eng katta yaqinligiga ega va uni keyingi tahlil qilish uchun qoldirish mumkin. Omil x4, x omillar bilan multikollinear bo'lib, u bilan kamroq bog'liq (g = 0,022), shuning uchun bu omil modeldan potensial ravishda chiqarib tashlanadi. x4 omilni olib tashlash orqali biz x2 va x4 omillari orasidagi ko'p chiziqlilikni olib tashlaymiz. x2 va xb omillar bir-biri bilan multikollinear bo'lib (g = 0,50 va g = 0,58) bilan ulanish darajasi yuqori hisoblanadi.

Keyingi bosqichda omillarni koeffitsiyentlarini tahlil qilish bo'lib, bunda qaysi omillar o'rtachakvadratik og'ish holati va regressiya koeffitsiyentlari orqali ularning koeffitsiyentlarini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi jadvalga ega bo'lamiz.

5-jadval: Ta'sir qiluvchi omillar koeffitsiyentini hisoblash ko'rsatkichlari[17]

| Кўрсаткичлар | Регрессия коэффициенти | Ўртачаквадратик оғиш | Коэффициент |
|---|---|---|---|
| Y-пересечение | 1256,70706 | 354,36797 | |
| Переменная X 1 | 0,02472 | 358,48018 | 0,02501 |
| Переменная X 2 | -2,84245 | 348,00469 | -2,75939 |
| Переменная X 3 | -80,83715 | 335,56921 | -77,94854 |
| Переменная X 4 | 10,97919 | 321,55050 | 10,52052 |
| Переменная X 5 | -88,21719 | 306,56823 | -84,10681 |
| Переменная X 6 | -106,38339 | 288,94116 | -100,26656 |
| Переменная X 7 | 109,76149 | 273,62830 | 103,94452 |

Bunda, x omillarni koeffitsiyenti orqali tahlil natijasiga ko'ra x2, x3, x5, xb omillarni chiqarib tashlaymiz.

Keyingi bosqichda regressiya koeffitsiyentlarini statistik ahamiyatga ega ekanligini tekshiramiz. Tekshirish ikki usulda amalga oshiriladi: Styudent mezoniga va Fisher mezoniga muvofiq. Bizning misolimizda bizning statistik ahamiyatini Styudent mezoniga muvofiq tekshirishga e'tibor qaratamiz:

$$t_k = \frac{a_k}{S_{a_k}} \quad (4)$$

Bu yerda, $a_k$ – k omilning regressiya koeffitsiyenti, $S_{ak}$ – $a_k$ ning standart og'ishini baholash parametri. Bizning misolimizda regressiya funksiyasini bajarishda Styudentning mezoni allaqachon hisoblab chiqilgan.

O'zgaruvchilarni qaram o'zgaruvchiga ahamiyatsiz ta'siri tufayli tahlildan chiqarib tashlash to'g'risida yakuniy qaror qabul qilishdan oldin, omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganish amalga oshiriladi. Biz yuqorida ko'rib chiqqanimizdek bank aksiyalariga ta'sir qiluvchi omillardan faqat uchtasini tanlab oldik. Shunga asosan ularni ta'sir darajasini ko'rib chiqamiz.

6-jadval: Korxona aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillarning korrelsion-regression tahlili[18]

| Регрессионная статистика | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Множественный R | 0,817154582 | | | | |
| R-квадрат | 0,66774161 | | | | |
| Нормированный R-квадрат | 0,596543384 | | | | |
| Стандартная ошибка | 324,8808035 | | | | |
| Наблюдения | 18 | | | | |
| | | | | | |
| Дисперсионный анализ | | | | | |
| | df | SS | MS | F | Значимость F |
| Регрессия | 3 | 2969672,934 | 989890,9779 | 9,378627024 | 0,001182543 |
| Остаток | 14 | 1477665,511 | 105547,5365 | | |
| Итого | 17 | 4447338,444 | | | |

17 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.
18 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.

| | Коэффициенты | Стандартная ошибка | t-статистика | P-Значение | Нижние 95% |
|---|---|---|---|---|---|
| Y-пересечение | -396,3952871 | 192,5754677 | -2,058389325 | 0,058667758 | -809,4285867 |
| Переменная X 1 | -0,175886737 | 0,308580266 | -0,56998699 | 0,577719449 | -0,837725583 |
| Переменная X 2 | 16,26555313 | 7,051685653 | 2,306619145 | 0,036884267 | 1,141191616 |
| Переменная X 3 | 88,01961791 | 21,24466046 | 4,143140724 | 0,000994777 | 42,45435297 |

Regressiya tenglamasi quyidagi shaklga ega:

Y=-396,3952871-0,175886737x1+16,26555313 x2+88,01961791 x3 (5)

Ushbu regressiya uchun ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,817 (yuqori), bu tanlangan omillar va bankning aksiyalari narxini o'zgarishi o'rtasidagi munosabatlarning yuqori yaqinligini ko'rsatadi.

Bir biriga bog'liq bo'lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasini hisoblash kerak.

7-jadval: Bir biriga bog'liq bo'lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasi[19]

| | Столбец 1 | Столбец 2 | Столбец 3 | Столбец 4 |
|---|---|---|---|---|
| **Столбец 1** | 1 | | | |
| **Столбец 2** | 0,462203728 | 1 | | |
| **Столбец 3** | 0,402406607 | 0,453924006 | 1 | |
| **Столбец 4** | 0,728889701 | 0,51543314 | 0,060708134 | 1 |

Korrelyatsiya va regressiya tahlilida munosabatlarning ishonchliligini (moddiyligini) tekshirishda quyidagi formulalardan foydalaniladi[20].

$$F = \frac{(D_m - D_{m1})(n-m-1)}{(m-m1)(1-D_m)} \quad (6)$$

Bu yerda, $D_m$ – omillar soni bo'lgan *m* ishonchlilik diterminatsiya koeffitsiyenti, $D_{m1}$ – omillar soni $m_1$ bo'lgan diterminatsiya koeffitsiyenti, n – o'rganilayotgan kuzatuvlar soni, m – tanlab olingan omillar soni. Biz tahlillarimizda , $D_m$ = 0,9480, $D_{m1}$ = 0,2786, n = 18, m = 7 ga hamda $m_1$ 3 ga teng.

Natijalarni formulaga qo'yib hisoblasak quyidagi ko'rsatkichga ega bo'lamiz:

$$F = \frac{(D_m - D_{m1})(n-m-1)}{(m-m1)(1-D_m)} = \frac{(0.9480 - 0.2786)(18-7-1)}{(7-3)(1-0.2786)} = 2.319735$$

Fischer taqsimotining kritik nuqtalari jadvalida biz F - mezonning α = 0,05 muhimlik darajasidagi kritik qiymatini asosida $F_{m-m1}(m_1)=F_4$ (3) erkinlik darajalari sonini topamiz, bu 6,59 ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldan kichik bo'lgani uchun F(2,319<6,94) regressiya tenglamasi muhim deb tan olinadi. Binobarin, ilgari chiqarib tashlangan omillar birgalikda u o'zgaruvchisiga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Endi tanlangan modelni adekvatliligini aniqlaymiz. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$F = \frac{D(n-m-1)}{m(1-D)} \quad (7)$$

Bu yerda, D diterminatsiya koeffitsiyenti bo'lib, uning qiymati 0,527 gateng. m-tanlangan omillar soni bo'lib, uning qiymati 3 ga teng, n – o'rganilayotgan kuzatuvlar soni bo'lib, u 18 ga teng.

$$F = \frac{0{,}527^2(18-3-1)}{3(1-0{,}527^2)} = 5{,}19$$

Fischer taqsimotining kritik nuqtalari jadvalida biz F – mezonning α = 0,05 muhimlik darajasidagi kritik qiymatini asosida F2(6) erkinlik darajalari sonini topamiz, bu 5,14 ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldan katta bo'lgani uchun F(5,19 >5,14) model adekvat deb tan olinadi.

19 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.
20 https://studref.com/663902/menedzhment/primer_postroeniya_mnogofaktornoy_korrelyatsionno_regressio

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

8-jadval: O‘rtacha xatolikni topish matritsasi[21]

| | Qoldiq | y funksiya qiymatlari | O‘rtacha xatolikni hisoblash |
|---|---|---|---|
| y1 | -932,485047 | 3932,485047 | -23,71236091 |
| y2 | 951,9847348 | 4448,015265 | 21,40246105 |
| y3 | 2280,546761 | 5569,453239 | 40,94740835 |
| y4 | -1977,952108 | 12097,95211 | -16,34947874 |
| y5 | -2490,968103 | 18860,9681 | -13,20700024 |
| y6 | 2600,892046 | 21043,10795 | 12,35982846 |
| y7 | -2486,094698 | 28016,0947 | -8,873808874 |
| y8 | -3228,168453 | 31058,16845 | -10,39394341 |
| y9 | 5282,244867 | 32717,75513 | 16,14488783 |
| | | O‘rtacha qiymat | 2,492878871 |
| | | O‘rtacha xatoli | 0,024928789 |

Bizning misolimizda taxminiy xato ruxsat etilgan qiymatdan oshmaydi (0,024% < 5%), bu regressiya tenglamasini tanlashning juda yuqori sifatini ko‘rsatadi individual omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’sirini tavsiflash uchun ishlatiladigan maxsus ko‘rsatkichlarni hisoblash – elastiklik koyeffitsiyenti, bu boshqa omillarning belgilangan qiymatlari bilan argumentning 1% ga o‘zgarishi bilan funksiyaning o‘rtacha necha foizga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Uning hisoblash formulasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Э_k = a_k * \frac{\overline{x_k}}{\overline{y}} \quad (8)$$

Bu yerda, $Э_k$ - k-chi ko‘rsatkichning elastiklik koeffitsiyenti.

9-jadval: Elastiklik koeffitsiyentini hisoblash matritsasi[22]

| | Ўртача қийматлар | Регрессия коэффициенти | Ўртача квадратик оғиш | Эластиклик коэффициенти | Вариация коэффициенти |
|---|---|---|---|---|---|
| Y-пересечение | 511,4764 | 508,3026257 | 354,36797 | | |
| Переменная X 1 | 342,7406 | 0,897155337 | 358,48018 | 0,601184255 | 1,045922718 |
| Переменная X 2 | 12,87621 | 2,141892954 | 321,5505 | 0,080467454 | 24,97244919 |
| Переменная X 3 | 4,444094 | -115,4610496 | 273,6283 | -39,85021662 | 61,57122239 |

Bizning misolimizdagi elastiklik koeffitsiyentlarining qiymatlari mos ravishda $E_1$ = 0,60, $E_2$ = 0,08 hamda $E_3$ = -39,85 bo‘lib chiqdi. Demak, bank foydasini 1% ga o‘zgarishi bilan funksiya 0,60% ga o‘zgaradi; ROE ning 1% ga o‘zgarganda, funksiya 0,08% ga o‘zgaradi hamda inflyatsiya darajasi 1% o‘zgarishi bilan funksiya -39,8 % ga o‘zgaradi.

21 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.
22 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korrelyatsiya-regressiya tahlili jarayonida ma'lum bo'ldiki, retrospektiv davrda tijorat banklarining EBO ko'rsatkichini o'zgarishini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardir:

Bank sof foydasi, rentabellik ko'rsatkichi va inflyatsiya darajasi natijalarining o'zgarishi asosiy omillar sifatida belgilab olindi. Ko'rinib turibdiki, kelgusi davrda bankning EBO ko'rsatkichini oshirish uchun birinchi navbatda inflyatsiya darajasiga, sof foydasini oshishiga va rentabellikka alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi;

- inflyatsiyaning bir birlikka oshishi, bankning EBO ko'rsatkichini –308,38ga pasayishiga olib keladi. Xuddi shundan bank rentabelligini hajmini bir birlikka pasayishi, bankning EBO ko'rsatkichini – 380,13 ga pasayishiga olib keladi hamda bankning sof foydasini bir birlikka kamayishi bankning EBO ko'rsatkichini – 396,56 birlikka pasayishiga olib kelishi tahlil qilindi. Ushbu regressiya uchun ko'p omilli korrelyatsiya koyeffitsiyenti R = 0,817 (yuqori), bu tanlangan omillar va aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari narxini o'zgarishi o'rtasidagi munosabatlarning yuqori yaqinligini ko'rsatdi;
- elastiklik koeffitsiyentlarining qiymatlari mos ravishda $E_1 = 0,60$, $E_2 = 0,08$ hamda $E_3 = –39,85$ ga tengligi aniqlandi. Demak, bank foydasini 1% ga o'zgarishi bilan funksiya 0,60% ga o'zgaradi; ROE ning 1% ga o'zgarganda, funksiya 0,08% ga o'zgaradi hamda inflyatsiya darajasi 1% o'zgarishi bilan funksiya –39,8 % ga o'zgarishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. –T.:2022 y. – 152 b.
2. Kilyachkov A.A., Chaldayeva L.A. Securities Market and exchange business/ Kilyachkov A. A., L. A. Chaldayeva. –M.: Yurist, 2011. –704 p.
3. Аибиэкэ, Адилицзян. Расчеты взаимосвязи рынка акций и экономического развития на основе факторного анализа / Адилицзян Аибиэкэ. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 24 (210). – С. 112-116.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2023 йил 5 майдаги 10/5-сон қарорига 1-илова (https://lex.uz/docs/6487097)
5. https://akhancem.uz/lat/info4.html, https://cbu.uz
6. https://banki.bobrodobro.ru
7. https://bstudy. net /762654/ ekonomika/ korrelyatsionno _regressionnyy_ metod_analiza_bankovskoy_deyatelnosti?ysclid=lhitjz69yr9593081
8. https://nrm.uz/ contentf?doc=697787_ &products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana&ysclid= lhonjn0vw 0715732386.
9. https://nrm.uz/contentf?doc=697787_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana&ysclid=lhonjn0vw715732386.
10. https://sovman.ru/article/7101/?ysclid=lhoauvhfo6325967224
11. https://studref.com/663902/menedzhment/primer_postroeniya_mnogofaktornoy_korrelyatsionno_regressio
12. https://www.hindawi.com/journals/js/2021/1089266.
13. https://yuz.uz/news/bank-tizimi-va-fond-bozori-investitsion-jozibadorlik-nima-beradi.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.